

DIZARTRIK BOLALARNI SAVODGA TAYYORLASH

Ergasheva Shoirra To'likovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Maxsus pedagogika yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada dizartriya nutq nuqsonining kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, turlari va ularni savodga o'rgatish bosqichlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Serebral falajlik, taxilaliya, bradilaliya, sensor kamchiliklar, fonetik-fonematik nutq, optik-gnozis, leksik-grammatik.

Annotation: The article describes the causes of the origin of the speech defect of dysartria, its development, types and stages of teaching literacy.

Keywords: Cerebral palsy, tachylalia, bradylalia, sensory deficiencies, phonetic-phonemic speech, optical-gnosis, lexical-grammatical.

Аннотация: В статье описываются причины возникновения речевого дефекта дизартрии, его развитие, виды и этапы обучения грамотности.

Ключевые слова: Церебральные паралич, тахилалия, брадилалия, сенсорные дефициты, фонетико-фонематическая речь, оптико-гнозис, лексико-грамматический.

Serebral falajlangan bolalarda dizartriya eng ko'p tarqalgan nutqiy kamchilik hisoblanadi. Dizartriya yuzaga keluvchi patologik o'zgarishlarning sababi - bosh miyaning oldingi hududidagi markaz oldi burmasidagi, oldingi markaziy qismdagi zararlanishlar, piramidali yo'llar hamda ekstrapiramidali tizimning, peshona-miyachali tizimlar shuningdek ularni birlashtirib turuvchi tolalar, miyacha, uzunchoq miyadagi bosh miya nervlarining yadrolarining buzilishi yoki rivojlanmasligidir. Dizartriyaning boshqa nutq nuqsonlaridan farqlantirib turuvchi jihati shundaki, bu holatda ayrim tovushlar talaffuzi emas, balki nutqning umumiy

talaffuzi buziladi. Og'ir holatlarda nutq umuman tushunarsiz yoki yo'q bo'lgan ko'rinishga ega bo'ladi. Dizartriyaning bunday keskin hamda og'ir hollari **anartriya** deb atalib talaffuzning butkul imkonsizligi bilan xarakterlanadi.

Dizartriyada yuqorida aytib o'tganimizdek nutq noaniq, tushunarsizdir. Aksariyat hollarda nutq tempi buzilgan bo'lib, ayrim ko'rinishlarda u tez (taxilaliya), ko'pgina vaziyatlardalarda esa u sekinlashgan (bradilaliya) bo'lishini kuzatish mumkin. Ayrim hollarda tezlashgan va sekinlashgan nutq tempining almashinib turishini ko'rish mumkin. (E.M.Mastyukova) Iboralar noaniq ko'rilib, oxiriga yetkazilmaydi, ma'no urg'ulari tartibsiz qo'yilib, pauzalar noto'g'ri ajratiladi, tovush, so'zlarning tushib qolishi, iboraning so'ngida nutq umuman tushunarsiz ko'rinishga ega bo'lishi xarakterlidir. Shuningdek ovoz buzilishlarini kuzatish mumkin: ovoz past, aksariyat hollarda notekis, goh birdaniga baland, yoki past, ma'nosiz, ayrim hollarda manqalangan ko'pincha bo'g'iqdir. Dizartriyada nutqning leksik-grammatik tomonidan buzilishi yetakchi nuqson emas. Ammo nutqning harakat mexanizmlarini nutqgacha bo'lgan davrda zararlanishining sensor kamchiliklar bilan birgalikda kelishi serebral falajlangan bolaning nutqiy rivojlanishining barcha tarkiblarida murakkab dezintegratsiyani hamda patologiyani kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Serebral falajlangan bolalarda dizartriya ko'pincha eshitish qobiliyatining pasayishi bilan birga kelishi mumkin. (M.V.Ishtolito) Ko'pincha fonematik eshituvning rivojlanmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Sindromologik yondoshuvga ko'ra esa dizartriyaning spastik-rigid, giperkinetik hamda ataktik shakllari farqlanadi.

Atrofdagilar uchun bolaning nutqini tushunarligi bo'yicha tasnif fransuz nevropatologi Tarde tomonidan taklif etildi. U serebral falajlangan bolalardagi nutqiy buzilishlarning to'rtta darajasini ajratib ko'rsatdi:

1. Tovushlar talaffuzidagi kamchilik faqatgina bolani mutaxassis ko'rikdan o'tkazganidagina aniqlanadi;
2. Talaffuzdagi kamchiliklar barchaga bilinadi, lekin nutqi tushunarli;
3. Bola nutqi faqatgina uning yaqinlarigagina tushunarli;

4. Nutq yo'q yoki u bo'lgan taqdirda ham hatto yaqinlari uchun ham tushunarsiz. Mantiqan olganda to'rtinchi daraja ostida anartriyaning tushunmoq lozim. Anartriya namoyon bo'lish og'irligiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin:

1. Nutq va ovozning umuman yo'qligi;
2. Faqatgina ovoz reaksiyalarining mavjudligi;
3. Tovush-bo'g'inli faollikning mavjudligi.

Serebral falajlangan bolalarning intellektual rivojlanishi salbiy sharoitlarda kechganligi sababli ham aksariyat hollarda kechikadi yoki buzilgan bo'ladi. Bolalar serebral falajlanishida intellekt turlicha o'zgarganligini ko'rish mumkin: taxminan 30% bolalarda intellektning oligofreniya ko'rinishida o'zgarganligini ko'rsak, 25-30% bolalarda intellekt saqlangan bo'ladi, qolgan bolalarda esa, harakat, nutqiy hamda sensor kamchiliklar bilan bog'liq bo'lgan intellektual rivojlanishning kechikishini ko'ramiz. Ushbu muammolar maktab davrigacha ham to'liq bartaraf etilmay, bolada o'quv materialini egallash bilan bog'liq bo'lgan qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Harakat kamchiliklari natijasida predmetlar va ularning harakati hamda sifati bilan bog'liq bo'lgan lug'at kamchiliklari o'z-o'zidan o'qituvchi nutqini to'liq anglay olmaslikka, o'quv matnlari hamda arifmetik misollar shartini, badiiy adabiyot mazmunini tushunmaslikka olib keladi.

Bolalardagi falajlanish oqibatidagi tafakkur yetishmovchiliklari, harakat tizimidagi qo'pol buzilishlar sababli motor kamchiliklar bolani savodni egallashga muhim to'siqlar hosil qiladi.

Bolalar serebral falajlanishida, bolalarning aksariyat qismida fonetik-fonematik nutq kamchiligi mavjud bo'lib, uning oqibatida bola o'qish va yozuv malakalarini o'zlashtirishi qiyinlashadi. Tovush, bo'g'in, so'z va gap strukturasini taxlil qilish va sintezning zaifligi yoki aksariyat hollarda umuman yo'qligi so'z va matn strukturasini anglash bilan bog'liq qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin.

Savodni egallashga kirishgan o'quvchi oldida tovushning grafik belgisi - harf bilan tanishish, ularni optik jihatdan farqlash, akustik taassurotlarni optik tushunchalar bilan bog'lash muammosi gavdalanadi.

Ushbu bolalarda fazoviy mo'ljol olishning noto'g'riligi, bolalarni mo'ljalni belgilashda qiynalishlari aniqlangan. Buning asosida bolada murakkab tarzda mavjud bo'lgan optik-gnozis sabablar yotadiki, bola xatto sodda holatlarda ham mo'ljol ola bilmaydi. Bunday tushunchalarni hosil qilish dizartirik bolalarda qator sabablarga ko'ra murakkablashadi. O'ng va chap tamonlarni aniqlashda qiynalgan bola o'z-o'zidan savod malakalarini egallashda qiynalishi tayindir. Bola har ikkala qo'li bilan ham yaxshi va maromida harakatlana olmaydi. Ular orasida nisbatan yetakchi funksiyasini aniqlash shuningdek bolaning sog'lom hamda falajlangan qo'lga nisbatan aniqlanadi. Yozuv malakalarini egallashi lozim bo'lgan dizartirik bola (agar bu yengil ko'rinish bo'lmasa) barmoqlar faoliyatini boshqarish hamda to'g'ri yo'nalish bera olishga qaratadi. Harakatlarning notekisligi va juda keskin hamda sustligi bolaning ko'nikmalarni o'z vaqtida egallashdan mahrum qiladi.

Dizartirik bolalar nutqidagi fonetik kamchiliklar bilan bir qatorda nutqning leksik-grammatik tomonining ham yetishmovchiligini kuzatish mumkin. Bolalar o'z tengdoshlariga nisbatan kam va sayoz lug'atga ega bo'lishlari ularning o'qilayotgan matnda mo'ljol olishlariga, sinonim va antonim so'zlarda hamda omonimlar qo'llangan matnni umuman tushunilmasligiga, ma'lumotning yetishmovchiligi boladagi analitik-sintetik aloqalarning zaifligini hamda passiv va aktiv lug'atning rivojlanmasligini keltirib chiqarganligi esa bolaning keyingi bosqichlarda albatta savodni egallashdagi qiyinchiliklariga sabab bo'ladi.

Aksariyat xollarda og'ir nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nuqson faqatgina nutqiy muammolar bilangina chegaralanib qolmay, balki qator jismoniy hamda ruhiy yetishmovchiliklar zahirida ham kuzatiladi. Ushbu bolalar o'z-o'zidan savodni egallash uchun zarur ko'nikma va malakalarni egallay olishlari mushkul. Ko'pgina hollarda ularda nutqiy kamchiliklar bilan birga motorika bilan bog'liq muammolar mavjud bo'ladi, ular o'z navbatida bola va pedagoglar oldida katta to'siq sifatida shakllanadi.

BSF sindromli dizartirik bola og'ir nutqiy kamchilikka ega bo'lgan boladan farqli ravishda harakat holatida ham murakkab ziddiyatlarga ega. Fikrimizcha ushbu bolalarni savodga tayyorlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirilishiga qaratilgan

bo'lmog'i lozim:

1. bolaning umum jismoniy va motorik xolatini yaxshilash;
2. barmoqlardagi mayda muskul motorikasini rivojlantirish;
3. aqliy faoliyatga bo'lgan qiziqishni shakllantirish;
4. bolalarda xotira, idrok, diqqatni o'stirish;
5. imkon darajada nutqiy faolliklarini oshirish;
6. nutqiy muammolarni bartaraf etish;
7. fazoviy tafakkur, hamda tasavvurlarini o'stirish;

Egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma hamda malakalar bir necha bo'limlarga ajratilib, ular asta-sekinlik va izchillikda, soddadan murakkabga qaratilgan holda o'zlashtirilishi lozim. Ma'lumki savodni egallashda barmoqlar motorikasi muxim ahamiyatga ega. Barmoqlar harakatchanligini oshirishga qaratilgan mashqlarning muayyan tarzda doimo bajarilishi bolaning nutqiy faoliyatiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Barmoqlardagi mayda muskul motorikasini oshirishga qaratilgan ishni har kuni eng kamida 5-10 daqiqa davomida amalga oshirish lozim.

Savodni egallashda fazoviy tasavvur muhim ahamiyaga ega bo'lib, bolaning yozuv malakalarini samarali egallashida uning tutgan o'rni beqiyosdir. Shu sababli ham bola tomonlar haqida tasavvurga ega bo'lishi, nafaqat o'z chap qo'li yoki o'ng qulog'ini ko'rsatib berishi balki, o'zgalarning, o'z o'rtoqlarining chap ko'zi yoki o'ng oyog'ini qiyinchiliksiz aniqlashi lozim. Tevarak-atrofdagi to'g'ri mo'ljal o'la bilish ko'nikmasi o'z-o'zidan qog'ozda mo'ljal o'la bilish malakasi bilan chambarchas bog'liqdir. Harakat muammolariga ega bo'lgan dizatrik bolalarda esa ushbu masala juda murakkab xarakterga ega. Shu sababli ham kundalik mashg'ulotlar va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda bolalar bilan maxsus mashqlar o'tkazish hamda ulardagi fazoviy tushunchalar zahirasini oshirib barmoq muhimdir.

Fazoviy tasavvurni rivojlantirish maqsadida turli o'yin-mashqlarini tashkil etish mumkin:

«Qaerdaligini top-chi?»

Bolalar guruhiga umumiy yoki har bir bolaga alohida topshiriq berish.

Bunda bola soʻz yoʻllanmasi boʻyicha muayyan buyumni topib kelishi yoki belgilangan manzilga yetishi shart. Masalan: «Oʻrningdan turib chap tarafga buril. Toʻgʻriga ikki qadam qoʻy. Endi oʻng tarafga buril, bir qadam oldinga yur. Sen nimani koʻrayapsan?» Bu topshiriqni olgan bola moʻljalni toʻgʻri olib, belgilangan buyum oldidan chiqishi va uni aytishi lozim.

Ammo har doim ham BSF dizartrik bola mustaqil harakatlanish imkoniga ega emas. Bu esa bolani ushbu yoʻnalishda olib boriladigan oʻyinlardan mahrum qilish degani emas. Bu muammoni yakka mashqlar davomida quyidagicha hal etish mumkin:

Dizartrik bolalarni savodga tayyorlash jarayoni quyidagi vazifalarni amalga oshirishda xizmat qilmogʻi zarur:

1. Nutqning tovush tarkibiga qaratilgan eʼtiborni tarbiyalash:

- soʻzga eʼtibor bilan quloq solish;
- tovushlarni ajratish;
- fonatsion tomondan oʻxshash boʻlgan tovushlarni ajratish;

2. Soʻzning tovush tarkibida toʻgʻri moʻljalga ola bilish:

- tovushlarni ketma-ket ajratish;
- ularning soʻzdagi oʻrnini belgilash;

3. Bolalarning ogʻzaki nutqlarini faollashtirish.

Bolalar diqqat markaziga soʻz va gapni chiqarish, soʻzlarni oʻzgartirish va yangi soʻzlarni hosil qilishga oʻrgatish, nutqiy holatlarni kuzatish, solishtirish hamda umumlashtirish koʻnikmalarini hosil qilish. Oʻqish va yozish koʻnikmalarini egallashda koʻruv idroki va fazoviy tasavvur muhim ahamiyatga ega. Dizartrik bolalarda aynan ana shu jihatlar fiziologik toʻsiqlar tufayli maʼlum muammoli koʻrinish kasb etadi. Zero oʻqish va yozish koʻnikmalarining hosil boʻlinishi toʻliqligicha koʻrish qobiliyati va koʻruv idroki tomonidan boshqariladi.

Dizartrik bolalarni savodga tayyorlash kundalik mashgʻulotlar davomida olib boriladi. Jismonan jihatdan oʻz tengdoshlaridan keskin farqlanuvchi dizartrik bolalar bu borada alohida yondoshuvni talab etadilar. Bu bolalarning aksariyat qismlarida BSF sindromi mavjudligi, ulardagi diqqat va xotiraning oʻziga

xos ko‘rinish kasb etganligi hech kimga sir emas. Bu bolalar uzok va davomli ravishda yakka faoliyat bilan band bo‘lishlari mushkul. Ulardagi mavjud harakat muammolari, giperkinezlar, falajlik holatlari vazifani yanada mushkallashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ayupova M. Yu. «Logopediya»-T.: «O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti», 2022.
2. «Bolangiz maktabga tayyormi?» Axmedova H., Yudina T., Vaxobova F., va boshqalar tax. ost.- T.; "Ma’rifat-Madadkor", 2020.
3. Mo‘minova L. R., Ayupova M. Yu. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni savodga o‘rgatish dasturi. (maktabga tayyorlov guruhlar uchun)». - T.: «Ijodkor», 2020.